



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA .....	34
<b>Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	61
<b>Абдуллаева Зайнаб Руслановна</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI .....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI .....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI .....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY .....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT .....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	



# TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI

Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va mablag'lardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada ta'lim tizimida mavjud moliyaviy muammolar, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligi hamda qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida moliyalashtirish mexanizmlarini optimallashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish muhim omil sifatida baholangan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, moliyalashtirish, optimallashtirish, budget mablag'lari, investitsiya, samaradorlik, ta'lim sifati, moliyaviy boshqaruv.

**Abstract.** This article examines the issues of improving the financing system of educational institutions and ensuring the efficient use of financial resources. In modern economic conditions, improving the quality of education, strengthening the material and technical base, and rational allocation of funds are considered important tasks. The paper analyzes existing financial problems in the education system, the effectiveness of budget expenditures, and opportunities for attracting additional funding sources. Furthermore, the study discusses directions for optimizing financing mechanisms based on international experience. The research findings indicate that optimizing the financing of educational institutions contributes to improving the quality and competitiveness of education. Digitalization of financial management, expansion of cooperation with the private sector, and attraction of investments are identified as key factors.

**Key words:** education system, financing, optimization, budget funds, investment, efficiency, quality of education, financial management.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы финансирования образовательных учреждений и эффективного использования финансовых ресурсов. В современных экономических условиях повышение качества образования, укрепление материально-технической базы и рациональное распределение средств являются актуальными задачами. В статье проанализированы существующие финансовые проблемы в системе образования, эффективность использования бюджетных средств, а также возможности привлечения дополнительных источников финансирования. Особое внимание уделено международному опыту оптимизации механизмов финансирования. По результатам исследования установлено, что оптимизация финансирования образовательных учреждений способствует повышению качества образования и конкурентоспособности системы. Важными направлениями признаны цифровизация финансового управления, расширение сотрудничества с частным сектором и привлечение инвестиций.

**Ключевые слова:** система образования, финансирование, оптимизация, бюджетные средства, инвестиции, эффективность, качество образования, финансовое управление.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish va uni samarali moliyalashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortib borishi ta'lim muassasalari faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, mablag'larni samarali taqsimlash va moliyalashtirish mexanizmlarini optimallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va moliyaviy mustaqilligini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son<sup>1</sup> Farmonida maktab ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan [1]. Mazkur farmonda ta'lim muassasalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va mablag'lardan maqsadli foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son<sup>2</sup> qarori oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy va boshqaruv mustaqilligini kengaytirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda [2]. Ushbu qaror asosida oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy resurslarni mustaqil boshqarish, budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish hamda ichki moliyaviy siyosatni samarali yuritish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa ta'lim muassasalarida moliyalashtirish tizimini optimallashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanish, balki ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois mazkur maqolada ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning zarurati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish masalalari milliy va xalqaro ilmiy manbalarda keng tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ta'lim sifatini oshirish hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son<sup>3</sup> Farmonida maktab ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va ta'lim muassasalarini samarali moliyalashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son<sup>4</sup> qarorida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va ichki moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan [2]. Mazkur hujjatlar ta'lim muassasalarida moliyalashtirish tizimini optimallashtirishning huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada ham ta'limni moliyalashtirish samaradorligini oshirish masalalari yetakchi tashkilotlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, UNESCOning "Education Finance Watch" hisobotida ta'lim xarajatlarini samarali rejalashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda investitsiyalarni kengaytirish masalalari tahlil qilingan [9]. Jahon bankining ta'lim sohasiga oid hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan [12]. OECD tomonidan tayyorlangan "Education at a Glance" hisobotida esa ta'lim tizimida moliyalashtirish samaradorligini oshirishning xalqaro ko'rsatkichlari va metodologik yondashuvlari keltirilgan [8].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Abdurahmonov Q.X. inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim tizimining iqtisodiy ahamiyati va moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini tahlil qilgan bo'lsa [3], Vahobov A.V. oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston amaliyotini ilmiy jihatdan o'rgangan [11]. Shuningdek, Ismoilov Q. ta'lim tizimida innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishning iqtisodiy ahamiyatini tadqiq etgan [6]. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Osiyo Taraqqiyot Bankining hisobotlarida ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan [4].

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilish orqali ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirishning nazariy asoslari, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy usullari yuzasidan ilmiy qarashlar shakllantiriladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-6008663>

2 <https://lex.uz/docs/-5793261>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-6008663>

4 <https://lex.uz/docs/-5793261>



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini ilmiy jihatdan o'rganish va uning samaradorligini baholashga qaratilgan bir qator tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar qo'llanildi.

1. Tahlil va sintez usuli. Ushbu metod yordamida ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimining amaldagi holati o'rganildi. Moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinib, mavjud muammolar umumlashtirildi.

2. Qiyosiy tahlil usuli. Mazkur usul orqali O'zbekiston ta'lim tizimidagi moliyalashtirish mexanizmlari rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Natijada ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirishning samarali yo'nalishlari aniqlandi.

3. Statistik tahlil usuli. Tadqiqot davomida davlat statistika ma'lumotlari, rasmiy hisobotlar hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'larning dinamikasi va samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi.

4. Tizimli yondashuv usuli. Ushbu metod asosida ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi yaxlit iqtisodiy mexanizm sifatida ko'rib chiqildi hamda uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.


5. Iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli. Mazkur usul yordamida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'nalishlari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Yuqoridagi metodlardan kompleks tarzda foydalanish tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlash bilan bir qatorda ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini optimallashtirish ta'lim sifatini oshirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar davomida ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi yildan-yilga oshib borayotganligi aniqlandi. Bu esa davlat tomonidan ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tiborning kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

O'rganishlar natijasida ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi ham aniqlandi. Xususan, mablag'lardan maqsadli foydalanishni kuchaytirish, moliyaviy nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirish hamda budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish tizim samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish hajmi<sup>5</sup> (mlrd so'm)

5 Manba: muallif ishlanmasi.



Mazkur diagrammada 2020–2025-yillar davomida ta'lim muassasalarini moliyalashtirish hajmining o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar hajmi yildan-yilga barqaror ravishda oshib borgan. Xususan, 2020-yilda 12 000 mlrd so'mni tashkil etgan moliyalashtirish hajmi 2025-yilga kelib 29 000 mlrd so'mga yetgan. Bu esa davlat tomonidan ta'lim tizimini rivojlantirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Diagrammadagi o'sish ko'rsatkichlari ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning moliyaviy qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi. Ta'lim muassasalariga ajratilayotgan mablag'larning ko'payishi zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ta'lim sifatini yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyalashtirish hajmining ortishi ta'lim tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirishning samarali yo'nalishlari belgilab olindi. Jumladan, moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish muhim omillar sifatida baholandi.

Tahlillar asosida ta'lim tizimida zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanishga, balki ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish bugungi kunda ta'lim tizimini samarali rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmining oshib borishi tizimning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ta'lim sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Biroq, moliyaviy resurslar hajmining ortishi bilan bir qatorda ulardan samarali foydalanish masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda [8].

Tahlillar davomida ayrim ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, mablag'lardan foydalanishda shaffoflik va nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish imkoniyatlari mavjudligi kuzatildi. Bu holat mavjud moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli moliyaviy nazoratni kuchaytirish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [6].

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ta'limni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Mazkur yondashuv qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi [4,10]. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish moliyalashtirish samaradorligini oshirish imkonini beradi [7].

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish ularning ichki moliyaviy siyosatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa budjetdan tashqari mablag'larni ko'paytirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim asos yaratadi. Natijada ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni optimallashtirish ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, ulardan samarali va maqsadli foydalanish zarurati saqlanib qolayotgani aniqlandi. Shu bois moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar natijasida ta'lim muassasalarida moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish va budjetdan tashqari mablag'lar ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Kelgusida ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish orqali zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Natijada ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligi ortib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6008663>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-5793261>
3. Abdurahmonov, Q. X. Inson kapitali iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 450 b.
4. Asian Development Bank. Uzbekistan: Education Sector Analysis. – Manila: Asian Development Bank, 2020. – 98 p.
5. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. The Economic Outcomes of Education Systems Reform. // Journal of Economic Literature, 2022, Vol. 60, No. 3, pp. 815-840.
6. Ismoilov Q. Ta'lim tizimida innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari. // Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022, № 4, 56-62-betlar.
7. Marginson, S. Global Trends in Higher Education Financing: Equity and Efficiency. // Higher Education Policy, 2023, Vol. 36, No. 2, pp. 201-224.
8. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 490 p.
9. UNESCO. Education Finance Watch 2023. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 156 p.
10. United Nations. Transforming Education Summit Report. – New York: United Nations Publications, 2022. – 74 p.
11. Vahobov A. V. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2024, № 2, 88-102-betlar.
12. World Bank. World Development Report 2018: Learning to Realize Education's Promise. – Washington DC: The World Bank, 2018. – 330 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (3)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---